

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RUZIBAYEV DJAXONGIR BAXODIRJANOVICH

**DAVLAT XIZMATCHILARINI BAHOLASH MARKAZLARINING
RIVOJLANTIRUVCHI SALOHIYATI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

УДК : 378.1:159.922.3

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on psychological Sciences**

Ruzibayev Djaxongir Baxodirjanovich

Davlat xizmatchilarini Baholash markazlarining rivojlantiruvchi salohiyati 3

Рузибаев Джахонгир Баходиржанович

Развивающий потенциал Центров оценки государственных служащих..... 25

Ruzibaev Djakhongir Bakhodirjanovich

Developmental potential of Civil Servant Assessment Centers 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RUZIBAYEV DJAXONGIR BAXODIRJANOVICH

**DAVLAT XIZMATCHILARINI BAHOLASH MARKAZLARINING
RIVOJLANTIRUVCHI SALOHİYATI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/P513 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bazarov Taxir Yusupovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kadirov Kamoliddin Botirovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Bafayev Muxiddin Muxammadovich
psixologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) , dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Toshkent davlat Sharqshunoslik
Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021. P.01.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4 uy. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 418-xona. Tel.: (+99871) 246-52-74/faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-04, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Bosh o‘quv binosi, “V” qism, 2-qavat, 217-xona. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.G.Muxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Rahimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S.Safayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi davrda jamiyat rivojlanishining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qodir, ma'muriy axloqning madaniy asoslarini o'zlashtirgan, vaziyatni yaxlitlikda va shu bilan birga, uning kichik elementlarini ko'ra oladigan, maqsadli auditoriyaga ijobiy ta'sir o'tkazishga qodir, o'zgaruvchan vaziyatni adekvat boshqarish va yangi sharoitlarga tezda moslashish kabi qobiliyat va ko'nikmalarga ega davlat boshqaruvi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning kasbiy mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga ko'ra, "davlat xizmatiga nomzodlarni ko'rsatish, tanlash va tayinlashda asosiy e'tibor samaradorlik, malaka va halollikning eng yuqori standartlarini ta'minlash zarurati bo'lishi kerak, ... odoblilik, xolislik, adolatlilik, halollik va rostgo'ylik kabi umumiy mezonlar birinchi darajali ahamiyatga ega"¹. Shu bois davlat xizmatchilari salohiyati, ularning o'z lavozimiga qanchalik mos ekanligini aniqlash, kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash va rivojlantirishning qisqa hamda uzoq muddatli rejalarini shakllantirish uchun samarali innovatsion tizimni ishlab chiqish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Dunyoda davlat xizmatchilari kasbiy rivojlanishining kompetentlik yondashuviga asoslangan tizimi xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlat xizmatchilari faoliyatini baholashga, kadrlar zahirasi bilan doimiy ishlashga, eng samarali xodimlarni tanlab olishga, kadrlar zahirasini shakllantirishga, inson salohiyatidan unumli foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan kompleks tizimlar ishlab chiqilmoqda. Ana shu maqsadda boshqaruv xodimlarining tayanch kompetensiyalarini baholash bo'yicha ilmiy asoslangan metodlarni yaratish, kadrlarni tanlash va xizmatga tayinlashning amaliy yo'naltirilgan strategik texnologiyalarini ishlab chiqish, davlat xizmatchilari faoliyatini baholash bo'yicha metodikalarni standartlashtirish va ma'lum mezonlarni ilgari surish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat xizmati tizimini rivojlantirishning professionallik va malaka tamoyillariga asoslangan normativ-huquqiy bazasi yaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "...davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish bo'yicha bir qator dolzarb vazifalar qo'yilgan"². Bu borada davlat xizmatchilarini baholash markazlarining rivojlantiruvchi ta'siriga oid tayanch psixologik mexanizmlarni o'rganish baholash tartib qoidalari hamda ularning rivojlantiruvchi samarasi o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash hamda nazariy va amaliy yechimlarini izlab topish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 8-avgustdagi PF-5139-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini

¹ <https://www.unjiu.org>

² <https://lex.uz/docs/6600413>

tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2020-yil 3-oktyabr PF-5843-sonli "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida", 2018-yil 30-may PF-3755-sonli "Istiqbolli boshqaruv kadrlarini konkurs asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 31-dekabrda PF-4939-sonli "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmonlari, shuningdek, boshqaruv kadrlari bo'yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada boshqaruv kadrlarini tanlash va ularning faoliyatini baholash muammosi Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO, Shvetsariya), Braziliya universiteti (Universidade de Brasília, Braziliya), Garvard Davlat boshqaruvi instituti (John F. Kennedy School of Government, AQSH), Rossiya xalq xo'jaligi va davlat boshqaruvi akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi), Ural federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Davlat boshqaruv universiteti (Rossiya Federatsiyasi) kabi jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida tadqiq etilgan. Buyuk Britaniyada "Saville Assessment" kompaniyasi zamonaviy boshqaruv nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda boshqaruv xodimlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, kasbiy kompetensiyalarni tanlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borilgan. E.G.G'oziyev, G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.S.Safayev, D.G.Muxamedova, E.N.Sattarov, Sh.R.Baratov, I.I.Maxmudov, O.E.Xaitov, Sh.H.Abdullayeva, T.M.Adizova, B.A.Abdullayev, D.S.Abdullajonova ilmiy ishlarida kadrlarni tanlash va uning mezonlari, rahbar psixologiyasi, boshqaruv faoliyati va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, kadrlar zahirasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari, boshqaruvda ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalalari yoritilgan³.

³ Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d.(DSc) diss. Avtoreferati, - T., 2019.; Абдуллажанова Д.С. Социально-психологические факторы эффективного формирования управленческого кадрового резерва в Узбекистане. Автореферат диссертации доктора психологических наук (DSc), - T., 2023.; Адизова Т.М. Социально-психологические особенности мастера и стиль руководства производственным коллективом. Автореф. дис. канд. псих. наук. Л., 1986. [электронный ресурс]; G'oziyev E.G., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. O'quv q'llanma. – T: Akademiya. 1998; Кадилов К.Б. Влияние эмоционального интеллекта на проявление лидерских качеств личности. [электронный ресурс]; Мухamedova D.G. Ta'lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish: Psixol.f.d.diss... avtoreferati. - T., 2015; Саттаров Э.Н. Ўзбекистон Республикаси прокуратураси раҳбар кадрлар захирасини шакллантириш тизимининг ижтимоий психологик такомиллашуви. Психология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. - T., 2022.; Хайитов О.Е. Олий та'лим муассасаси о'рта bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: psixol.f.d.(DSc) diss...

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda vakolatlarga asoslangan yondashuv asosida davlat xizmatchilarini tayyorlashning turli modellari, menedjerning liderlik fazilatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari, boshqaruv madaniyati va qadriyatlarini xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. T.Y.Bazarov, A.K.Erofeyev, E.B.Bashkin, G.P.Geranyushkina, S.N.Apenko, A.F.Denisov, A.Ya.Kibanov, E.L.Romanadze, V.A.Spivak, D.E.Myakushkin o'z tadqiqotlarida kadrlarni tanlash va faoliyatini baholashning innovatsion usullarini ishlab chiqish va qo'llashni ilmiy asoslashga harakat qilganlar. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, kompetentlik yondashuvi asosida mutaxassislar malakasini oshirishning turli modellari ilgari surilgan, boshqaruv madaniyati va qadriyatlarini, menejerning liderlik fazilatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari o'rganilgan hamda boshqaruv xulq-atvori modellari ishlab chiqilgan⁴.

Chet el olimlari G.Bekker, E.Bruking, K.Bryuster, M.Velazkes, K.Gudpaster, P.Draker, K.Devis, A.Kerroll, A.Petjigryu, K.Gendri, F.Xofferlar ijtimoiy muammolarini o'rgandilar. Tashkilotlarni rivojlantirish, ijtimoiy sheriklik va korporativ ijtimoiy mas'uliyatning shakllanish xususiyatlarini tadqiq etganlar. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, baholash markazlarining rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik usullar va protseduralar muammosi bugungi kungacha yaxshi o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq PZ-2017.09.13. 120-sonli "Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi davlat xizmatchilari faoliyatini Baholash markazlari (Assessment centre) texnologiyasining rivojlantiruvchi salohiyatini takomillashtirish bo'yicha psixologik dasturlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat xizmatchilari faoliyatini har tomonlama baholash hamda rivojlantirishning psixologik texnologiyasini ishlab chiqish va qo'llash;

baholash markazlari (assessment centre) rivojlantiruvchi ta'sirining tayanch psixologik mexanizmlarini aniqlash;

shaxslararo idrok jarayoni qonuniyatlarini ularning ekspert baholash natijalariga ta'siri nuqtayi nazaridan kompleks baholash texnologiyasi elementi sifatida o'rganish;

boshqaruv kadrlari rivojlanish bosqichlarini qayd etish imkonini beradigan rahbarlarni rivojlantirishning yangi modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini

avtoreferati. - T., 2019; Xayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma; Shakarov O'. Rahbar axloqi va adolatli boshqaruvni tashkil etish muammolari: S.f.b.f.dok.(PhD) diss...avtoreferati. - T., 2018; Yo'ldoshev A.O. O'zbekistonda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokining tashkiliy-huquqiy masalalari, - T., 2023.

⁴ Базаров Т.Ю. Социально-психологические методы и технологии управления персоналом организации. Автореферат диссертации на соискание доктора психологических наук, - М., 1999.; Башкин Е.Б. Эффективность стратегических ассесмент-сессий в развитии профессиональных компетенций специалиста. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата психологических наук, - М., 2010.

baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining abituriyentlari va tinglovchilaridan 800 nafari, Davlat turizm qo'mitasi, Davlat ekologiya qo'mitasi, Davlat arxitektura qo'mitasi, Xususiylashtirish davlat qo'mitasi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining davlat xizmatchilaridan 500 nafari, tadbirkorlik tashkilotlarining yuqori darajadagi menejerlaridan 35 nafari, jami 1335 nafar respondent jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini baholash markazlarining davlat xizmatchilari boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik tavsiflari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning turli bosqichlarida empirik ma'lumotlarni to'plash uchun quyidagilar qo'llanildi: V.N.Buzin, E.F.Vanderlikning Qisqa yo'nalish testi, Tashkiliy test (T.Yu.Bazarov), Yangi tashkiliy test (T.Yu.Bazarov), kreativlik testi (Torrens), Gilford testi, malakaviy test, guruhiy mashqlar, suhbat va keys yechish, kontent-tahlil hamda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlar (dispersion tahlil, korrelyatsion tahlil, ko'p chiziqli va logistik regressiya, ko'p o'zgaruvchan va bir o'zgaruvchanlik tahlili, Kruskal-Uollis va Mann-Uitni mezonlari).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maxsus ishlab chiqilgan interaktiv baholash usullarini (guruhiy munozara, keyslar) qo'llash natijasida tinglovchilarning Assessment-centrdan muvaffaqiyatli o'tish va akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda maxsus mashqlarni (tashkiliy va yangi tashkiliy test) muvaffaqiyatli hal qilish va suhbatdan o'tish natijalari o'rtasida korrelyatsion o'zaro aloqadorlik aniqlangan;

abituriyentlarda "sofdillik", "mas'uliyatlilik", "qonunga bo'ysunish", "adolatlilik", "murosasizlik" kabi qadriyatlarining shakllanganlik darajasi, ularda vaziyatni tahlil qila olish, qaror qabul qilish, qo'l ostidagi xodimlar motivatsiyasini oshirish va ularni nazorat qilish ko'nikmalari hamda ishontira olish, o'zgarayotgan vaziyatga tez moslasha olish qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bois boshqaruv samaradorligining muhim shart-sharoiti va samaradorlik indikatori ekanligi isbotlangan;

personalni baholashning yangi texnologiyasi - Assessment-centrni qo'llash natijasida lavozimga nomzodlarda "kuzatish", "atributsiya", "integratsiya", "tasdiqlash", "refleksiya" va "identifikatsiya" kabi ijtimoiy idrok komponentlarini tashxis qilish orqali ularda "proaktivlik", "strategik boshqaruv", "insonlarga e'tibor", "mas'uliyat", "maqsadga intilish", "uzoqni ko'ra bilish" kabi strategik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda professional, axloqiy-psixologik va maxsus mezonlar bo'yicha xulq-atvorini korreksiya qilishning psixometrik ko'rsatkichlari dalillangan;

"analitik bajaruvchi", "mustaqil ekspert", "komanda lideri", "jamoaga uchun ustoz" bosqichlarida lavozimga tanlash, kadrlar zahirasi yaratish, xodimlar salohiyatini baholash, inson resurslarini boshqarish, mutaxassislarining shaxslilik hamda kasbiy kompetensiyalarini anglangan holda takomillashtirishga qaratilgan o'quv-trening dasturini o'z ichiga olgan psixologik model ishlab chiqilgan va uning

samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

baholash markazidan foydalanish va davlat xizmatida boshqaruv xodimlari uchun maxsus senariyni ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq baholash tartib-qoidalarining rivojlanish samarasi o'rtasida ijobiy munosabat aniqlangan; baholash markazi ishtirokchilarining rivojlanish samarasi maksimal bo'lishi uchun ekspert komissiyalarining (psixolog, huquqshunos, iqtisodchi) fanlararo tarkibini tanlash va baholash tartib-qoidalariga kiritish zarurligi isbotlangan;

baholash markazi nafaqat boshqaruv vakolatlarini diagnostika qilish texnologiyasi, balki boshqaruv xodimlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligi, maxsus ishlab chiqilgan Baholash markazi dasturi orqali yuqori salohiyatga ega insonlarni erta aniqlash, samarali o'qitish va martabada tez o'sish imkoniyatini yaratishi asoslangan;

baholash markazining rivojlanish ta'siri ehtimoli nafaqat ishtirokchilarga taqdim etilgan tanlovga (taqdimot qilish tartibi, hisobotning qisqacha mazmuni), balki ishtirokchilarning kelajakdagi martaba istiqbollari haqidagi tasavvurlariga ham bog'liqligi aniqlangan;

baholash markazlarining rivojlanish ta'siri fanlararo nuqtayi nazardan (huquq, iqtisod, menejment va psixologiya) boshqaruv salohiyatini baholash metodologiyasi va usullaridan foydalanish orqali kuchaytirilishi amaliy jihatdan aniqlangan. Baholash markazining kuzatuvchisi sifatida fanlararo mutaxassislardan iborat ekspert baholash guruhlarini jalb etish orqali kadrlar salohiyatini kompleks baholashga erishish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi ilmiy asoslangan va xalqaro miqyosda qabul qilingan va nazariy jihatdan maqbul usullardan oqilona namunadan foydalangan holda o'rganilgani, empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilishning reprezentativligi, to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, aniqligi, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llanilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati loyihalashtirilgan davlat xizmatchilarini maxsus baholash markazlari texnologiyalari uchun asos bo'la oladigan rahbarni rivojlantirish psixologik modeli ishlab chiqilgan va uning yuqori samaraga ega ekanligi metodologik va metodik jihatdan asoslangan hamda bunday texnologiyalarni joriy etish nafaqat aktual boshqaruvchanlik kompetensiyalari darajasini baholash aniqligini ortishiga xizmat qiladi, balki davlat xizmatlari tizimidagi rahbarlarning rivojlanish salohiyatini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshqaruv personalini rivojlantirish maqsadlari uchun mo'ljallangan baholash markazlari qanday metodik asoslanishi zarurligini tushunish imkoniyatini beradi, bu esa boshqaruvchi jamoalarni shakllantirishda, kompaniyalar rahbarlarini konsultatsiya qilishda, strategik sessiyalar o'tkazishda va rahbarlik lavozimiga salohiyatli nomzodlarni baholashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat xizmatchilari faoliyatini “Baholash markazlari” texnologiyasining rivojlantirish salohiyatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagilar amalga oshirildi:

maxsus ishlab chiqilgan interaktiv baholash usullarini (guruhiy munozara, keyslar) qo‘llash natijasida tinglovchilarning Assessment-centrdan muvaffaqiyatli o‘tish va akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hamda maxsus mashqlarni (tashkiliy va yangi tashkiliy test) muvaffaqiyatli hal qilish va suhbatdan o‘tish natijalari o‘rtasida korrelyatsion o‘zaro aloqadorlik aniqlanganligiga oid ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining milliy kadrlar zaxirasini shakllantirishda nomzodlarni har tomonlama baholashda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2023-yil 20-noyabrdagi QW68327347-son ma‘lumotnomasi). Natijada kadrlarni tanlash va kadrlar zahirasi yaratishning yangitizimi yo‘lga qo‘yilgan;

abituriyentlarda “sofdillik”, “mas’uliyatlilik”, “qonunga bo‘ysunish”, “adolatlilik”, “murosasizlik” kabi qadriyatlarning shakllanganlik darajasi ularda vaziyatni tahlil qila olish, qaror qabul qilish, qo‘lostidagi xodimlar motivatsiyasini oshirish va ularni nazorat qilish ko‘nikmalari hamda ishontira olish, o‘zgarayotgan vaziyatga tez moslasha olish qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bois boshqaruv samaradorligining muhim shart-sharoiti va samaradorlik indikatorini ekanligi haqidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni himoya qilish Akademiyasining “prokuratura organlarining rahbar zahirasi lavozimlariga kiritilgan kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash kurslarida boshqaruv ko‘nikmalarini baholashda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Huquqni himoya qilish Akademiyasining 2023 yil 15 noyabrdagi 30/18-23-565-son ma‘lumotnomasi). Natijada bu akademiya qabul hay’ati faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

personalni baholashning yangi texnologiyasi - Assessment-centrni qo‘llash natijasida lavozimga nomzodlarda “kuzatish”, “atributsiya”, “integratsiya”, “tasdiqlash”, “refleksiya” va “identifikatsiya” kabi ijtimoiy idrok komponentlarini tashxis qilish orqali ularda “proaktivlik”, “strategik boshqaruv”, “insonlarga e’tibor”, “ma’suliyat”, “maqsadga intilish”, “uzoqni ko‘ra bilish” kabi strategik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda professional, ahloqiy-psixologik va maxsus mezonlar bo‘yicha xulq-atvorini korreksiya qilishning psixometrik ko‘rsatkichlari dalillanganligiga doir natijalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining lavozimga nomzodlar salohiyatini oshirishda, ularda yangi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2023 yil 20 noyabrdagi QW 68327347-son ma‘lumotnomasi). Natijada bu lavozimga tayinlanganlarda nafaqat ularning professional kompetensiyasini oshirish, balki maxsus mezonlar asosida har tomonlama rivojlantirish imkoniyatini bergan;

“analitik bajaruvchi”, “mustaqil ekspert”, “komanda lideri”, “jamoaga uchun ustoz” bosqichlarida lavozimgatanlash, kadrlar zahirasi yaratish, xodimlar salohiyatini baholash, inson resurslarini boshqarish, mutaxassislarining shaxslilik hamda kasbiy kompetensiyalarini anglangan holda takomillashtirishga qaratilgan

o'quv-trening dasturini o'z ichiga olgan psixologik model O'zbekiston Respublikasi Prezidentihuzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining personalni baholash, ularning kasbiy vashaxslilik kompetensiyalarini takomillashtirish borasidagi faoliyatida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2023-yil 20-noyabrdagi 68327347-son QW ma'lumotnomasi). Natijada hodimlar salohiyatini baholash bilan birga ularda fikrlash tizimligi, menedjerlik professionalizmi va liderlik qobiliyatlarini oshirish, qadriyatlar yo'nalishini o'rganishning yangi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqola chop etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining 2 ta xalqaro jurnalida, 3 ta maqola chop etilgan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida, 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plamida.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob (10 paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 135 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Ijtimoiy psixologiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi jahon amaliyotida boshqaruv kadrlarini tanlash va ularning faoliyatini baholash jarayoniga turlicha yondashuvlarni nazariy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ijtimoiy psixologiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuv inson resurslarini baholash, shuningdek, shaxsiy fazilatlar va kasbiy ko'nikmalar ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlarga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun muhim vositadir (T.Yu.Bazarov. A.K.Yerofeev, A.G.Shmelev, 2014). Faoliyatni tahlil qilishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muayyan sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun qanday ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar zarurligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu uni o'qitishni rivojlantirish, ishga olish va ish muhitida ish faoliyatini baholash uchun muhim vositaga aylantiradi. Bir qator mualliflar (Ulrix D., Brokbenk) xodimlarni baholash uchun tartib va usullarni optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, mazkur bobda inson resurslarini boshqarishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotida “kompetentlik”

tushunchasiga muhim o‘rin berilganligi ta’kidlangan. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarining terminologik farqlari tahlil qilinadi. Mazkur tushunchalarga turli mualliflarning yondashuvlari muhokama qilinadi (Big Legal Dictionary, L.Spenser, S.Spencer, S.Whiddent, S.Hollyford, T.Yu.Bazarov, A.K.Yerofeev, A.G.Shmelev).

Mazkur bobda baholash texnologiyasining imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumot berilgan. Baholash markazlari sohasidagi tadqiqotlarni ko‘rib chiqish xodimlarni baholash va rivojlantirishda qanday usullar hamda yondashuvlar keng qo‘llanilishini ko‘rishga imkon beradi, shuningdek, ushbu sohani qanday yaxshilash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Birlamchi tadqiqotning metodologiyasi, tashkil etilishi, tadqiqot usullari va natijalari”** deb nomlangan bo‘lib, davlat xizmatchilari faoliyat yuritadigan muhitni VUCA tavsifiy modelidan misol sifatida tushunishga bag‘ishlangan bo‘lib, umuman olganda har qanday tashkilot uchun murakkab muhitni, xususan, davlat xizmatining kadrlar resurslarini aks ettiradi.

“Boshqaruv faoliyatini o‘rganishning rolga asoslangan paradigmasi” deb nomlangan birinchi bandida xatti-harakatlar modellaridan misol sifatida foydalangan holda, muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatiga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy professional vakolatlarining namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Ikkita model ko‘rib chiqiladi, biri biznesda, ikkinchisi davlat xizmatchilari bilan ishlashda. Ikki modelning o‘ziga xos jihati shundaki, davlat boshqaruvi sohasida asosiy professional va boshqaruv rollari muhim bo‘lib, ularni yuqori darajadagi davlat xizmatchisi bajaradi va bu Menejer, Tashkilotchi. Administrator, Boshliq (T.Yu. Bazarov). Nomzodlarni baholash usullarining texnologiyalari ko‘rib chiqiladi.

“Davlat xizmatchilari vakolatlarining o‘ziga xos modelini shakllantirishga yondashuv” deb nomlangan ikkinchi bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga tinglovchilarni qabul qilish doirasida olib borilgan tadqiqot taqdim etilgan. Xususan, boshqaruv vakolatlari profillari qanday aniqlanganligi va davlat boshqaruvi sohasidagi menejrlarning umumlashtirilgan asosiy vakolatlari ishlab chiqilganligi tasvirlangan. Umumlashtirish turli sohalarga taalluqli: ijtimoiy boshqaruv, biznes va iqtisodiy boshqaruv. Menejerlar o‘z ishlarida eng yaxshi natijalarga erishish uchun ko‘rsatadigan xatti-harakatlar modellariga misollar tasvirlangan. Natijada eng muhim kompetensiyalarning beshta guruhi shakllantirildi, ular 1-jadvalda keltirilgan:

№	Kompetensiya nomi	Daraja	Tavsif
1.	Qadriyatlar	1	Vatanparvarlik, halollik, xaqiqatgo'ylik, odob-axloq, ma'naviy-axloqiy yetuklik
2.	Tizimli fikrlash	2,5	Vaziyatni yaxlit va uning alohida unsurlarini ko'rish qobiliyati; ma'lumotlarni umumlash tirish qobiliyati; muhim munosabatlarni aniqlash qobiliyati; umumiy narsadan asosiy narsani ajratib olish qobiliyati; ma'lumot to'plash usullarini bilish va katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimlashtirish qobiliyati
3.	Menedjerlik boshqaruv mahorati	2,5	Vaziyatni tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, vazifalarning ustuvorligini aniqlash, faoliyatni samarali tashkil etish, ularni bosqichlarga bo'lish qobiliyati; natijalarni o'z vaqtida va sifatli kuzatish qobiliyati
4.	Yetakchilik	4,5	Jamoa yoki guruh yetakchisi rolini o'z zimmasiga olish qobiliyati. Maqsadli auditoriyani natijalarga erishishga qaratilgan harakatlarga undash uchun ularni ishon tirish, ta'sir qilish yoki ijobiy taassurot qoldirish qobiliyati
5.	Moslashuvlik	4,5	O'zgaruvchan vaziyatni boshqarish qobiliyati, yangi sharoitlarga tezda moslashish va yangi muammolarni samarali hal qilish qobiliyati
6.	Foydalanishda cheklovlar mavjud		Salomatlik holati, oilaviy sharoitlar, salbiy holatlar

Tadqiqotning dastlabki bosqichining tanlovi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida tahsil olishga davogarlik qilayotgan 800 dan ortiq nomzodlar ishtirok etdi, birinchi marta quyidagi uch guruhga bo'lingan holda ularning salohiyatini aniqlash bo'yicha ish olib borildi:

A guruhi – “Magistratura” ta'lim shakli (2 yil) - 60 kishi

B guruhi – “Kasbiy qayta tayyorlash” ta'lim shakli (1 yil) - 240 kishi

C guruhi – “Malaka oshirish” ta'lim shakli (6 oygacha) - 500 kishi

Baholash mezonlari ishlab chiqilgan va boshqaruv kompetensiyalarini o'lchash usullari tanlangan.

Davogarlarning salohiyatini aniqlash va ularni guruhlariga (A, B va C) taqsimlash uchun ko'rsatkichlar, baholash mezonlari (liderlik, professionallik, tizimli fikrlash, qadriyatlar, o'zgarishlarga moslashish) va o'lchangan kompetensiyalar shkalasi ishlab chiqilgan, shuningdek, tanlangan va ushbu kompetensiyalarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan, bular 2-jadvalda keltirilgan.

KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH USULLARI

Kompetensiya nomi	Baholash usullari				
	Hujjatlarni o'rganish (obyektivkalar)	DTM	Psixologik test	Suhbat	
				Keyslar	Yakuniy suhbat
Qadriyatlar	+	+	+	-	+
Tizimli fikrlash	+	+	-	+	+
Boshqaruv professionalizmi	+	-	+	+	-
Yetakchilik	+	-	-	+	+
Moslashuvlik	+	-	+	+	+

Nomzodlarni tanlashning besh bosqichidan foydalanilgan:

1-bosqich. Nomzodlarni kadr hisoblari asosida tanlash (“obyektivka”, “ma’lumotnoma”). Bu yerda nomzodlarni baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanilgan: barcha zarur hujjatlarning mavjudligi, boshqaruv faoliyati staji, vertikal, gorizontaal va diagonal martaba dinamikasi, qo‘shimcha ta’limning mavjudligi va yo‘nalishi. Rasmiy talablarga javob beradigan taqdim etilgan hujjatlar asosida nomzodlarni saralash bosqichida kelib tushgan 1198 ta arizadan 688 nafari tanlab olindi.

2-bosqich. O‘zbekiston tarixi fanidan bilimlarni baholash, shuningdek, mantiqiy fikrlashni tekshirishga qaratilgan topshiriqlar natijalarini baholash. Ushbu tartib Davlat test markazi tomonidan amalga oshirildi. Test sinovlari natijasida abituriyentlarning reytingini ballarda aks ettiruvchi ro‘yxatning birinchi yarmidagi nomzodlarning 50 foizi keyingi tanlovda ishtirok etish uchun tanlab olindi. Shunday qilib, psixologik diagnostikadan iborat tanlovning 3-bosqichiga 344 nafar ishtirokchi qabul qilindi.

3-bosqich. Psixologik diagnostika kompyuter formatida o‘tkazildi. Ikkita test taqdim etildi: 1) qadriyatlarni o‘rganishga qaratilgan Shvarts so‘rovnomasi va 2) stressga chidamlilikni aniqlash uchun test (D. Amirxanning V.M.Yaltonskiy va N.A.Sirota tomonidan o‘zgartirilgan “Hayot muammolarini bartaraf etish strategiyalarini o‘rganish” usuli). Testlar natijalaridan, respondentning samimiyligini baholash uchun shkala kiritilgan bo‘lib, u D.Marlou va D.Kraun metodologiyasining 10 ta savolidan iborat bo‘lib, tasdiqlash motivatsiyasini o‘z-o‘zini baholashga tashxis qo‘yishga qaratilgan (yolg‘on shkalasi).

Psixologik diagnostika natijalariga ko‘ra to‘rtinchi bosqichga 179 nafar subyekt qabul qilindi.

4-bosqich. Suhbat ikki qismdan iborat bo‘ldi: 1) boshqaruv vaziyatlarini (hollarini) hal qilish va tahlil qilish hamda 2) vakolatlar bo‘yicha suhbat. Nomzodlar bilan suhbatlar uchta fanlararo komissiyada o‘tkazildi. Har bir komissiyada psixolog, iqtisodchi va huquqshunos bor edi. Boshqaruv vaziyatlari (hollari) tahlili uchun materiallar barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo‘lib, tanlash uchun ikki tilda, rus va o‘zbek tillarida taqdim etildi.

Suhbatning ikkinchi qismida asosiy e’tibor beshta asosiy kompetensiyalarni (Qadriyatlar, Tizimli fikrlash, Liderlik, Menejerlik kasbiyligi, O‘zgarishlarga

moslashish) ifodalashga qaratildi. Suhbat natijalari nomzodlarni baholash uchun maxsus varaqaga kiritildi, unda ekspertlar asosiy vakolatlarini ifodalash darajasiga qarab baho berishlari kerak edi. O'z navbatida, ekspertlar uchun baholash varaqasi ham ikki qismdan iborat edi:

1. Keys yechimini baholash
2. Qobiliyatni baholash

Vakolatlar bo'yicha suhbatlar uchun kuzatuvchilar o'qitildi va ishtirokchilarni tasdiqlangan vakolatlar ro'yxati hamda xulq-atvor ko'rsatkichlariga muvofiq baholash imkonini beradigan savollar tasdiqlandi. Suhbat natijalariga ko'ra 60 nafar talaba Akademiyaning magistratura bosqichiga qabul qilindi. Qolgan nomzodlar malakasini baholash natijalariga ko'ra B va C guruhlariga taqsimlandi. Tadqiqotning birinchi bosqichi natijalarini mazmunli tavsiflash doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash IBM SPSS 16.0 statistik paketida amalga oshirilganligi qayd etildi.

Olingan natijalarga ko'ra, "Moslashuvchanlik" kompetensiyasi yuqori ishonchlilik va o'lchovlarning izchilligiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi ($\alpha = 0,867$), barcha ko'rsatkichlar kompetensiyani baholash uchun juda muhim ijobiy vaznga ega (0,233 dan 0,723 gacha). Bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish ($\alpha = 0,946$) tufayli "liderlik" kompetensiyasi yuqori ishonchlilik va o'lchovlarning izchilligiga ega, barcha ko'rsatkichlar kompetensiyani baholash uchun sezilarli ijobiy vaznga ega (0,269-0,727). "Tizimli fikrlash" kompetensiyasi o'lchov izchilligining yuqori ishonchliligiga ega, bu, ayniqsa, kamroq ko'rsatkichlarni tahlil qilishda qimmatlidir ($\alpha = 0,901$); barcha ko'rsatkichlar kompetensiyani baholashda sezilarli ijobiy salmoqqa ega (0,393-0,692). "Boshqaruv professionalligi" kompetensiyasi o'lchov izchilligining yuqori ishonchliligiga ega ($\alpha = 0,931$), barcha ko'rsatkichlar kompetensiyani baholash uchun sezilarli ijobiy vaznga ega (0,209-0,777). "Qadriyatlar" kompetensiyasini baholashda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha juda past ball to'plagan subyektlar aniqlandi, bu ma'lumotlar tahlilni buzib ko'rsatadi. Biroq, agar ular tahlildan chiqarib tashlansa, u holda vakolat o'lchov izchilligining yuqori ishonchliligiga ega ($\alpha = 0,827$), ammo salbiy og'irlikdagi ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Uchinchi paragraf "**Baholash markazlarining rivojlanish ta'siri to'g'risida gipoteza**" deb nomlangan bo'lib, olingan natijalarning ikkilamchi tahlili tavsifiga bag'ishlangan. Ikkilamchi materiallar magistratura talabalarini tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, baholash markazidan so'ng fikr-mulohazalar uchun materiallar edi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra (3-jadval), biz aniqlagan kompetensiyalar magistratura talabalarining ta'lim natijalariga juda mos keladi. Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi hamda innovatsiyalar sotsiologiyasi fanlaridagi ko'rsatkichlar bir-biri bilan ishonch darajasida bog'liqligi aniqlandi ($r = 0,262$, $r - qiymati = 0,045$), shuning uchun ular yagona Moslashuvchanlik shkalasiga birlashtirildi.

Birinchi bosqichda baholarning umumlashtirilgan shkalasi bo'yicha fan ballarining moslashuv jadvali

	Punktning shkala bilan korrelyatsiyasi	Punktning o'chirganda Kronbax alfa koeffitsiyenti	Shkala bo'yicha Kronbax alfasi	Punktlar soni
Qadriyatlar			0,661	6
02 Boshqaruvning ma'naviy asoslari	0,416	0,611		
03 O'zbek davlatchiligi tarixi	0,476	0,592		
04 Davlat xizmati	0,321	0,647		
05 O'zbek va jahon adabiyoti	0,331	0,639		
06 Rahbar etikasi va boshqaruv madaniyati	0,412	0,612		
07 Diplomatik protokol va tiket	0,410	0,612		
Fikrlash tizimliliği			0,695	3
09 Tizimli tahlili va boshqaruvda qaror qabul qilish asoslari	0,578	0,527		
10 Investitsion loyihalarni boshqarish	0,503	0,612		
11 Boshqaruvda innovatsion-investitsion texnologiyalar	0,462	0,674		
Liderlik			0,701	7
13 Liderlik	0,514	0,643		
14 Liderning notiqlik ko'nikmalari	0,250	0,707		
15 Menejmentning zamonaviy usullari	0,479	0,649		
16 Innovatsion menedjment	0,343	0,685		
17 Self-menedjment	0,531	0,632		
18 Personalni boshqarish	0,601	0,636		
19 Korporativ boshqaruv	0,288	0,712		
Boshqaruv professionalizmi			0,828	11
21 O'zbekiston Respublikasi Harakatlar strategiyasi	0,304	0,835		
22 Mahalliy o'zini o'zi boshqarish	0,532	0,814		
23 Boshqaruvda AKT va "Elektron hukumat"	0,766	0,784		
24 Hududlarni rivojlantirish va boshqarish	0,549	0,815		
25 Jamoat va Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari	0,463	0,819		
26 Ma'muriy tartib va jarayonlar	0,640	0,800		
27 Fuqarolik jamiyati institutlari	0,629	0,804		
28 Fuqarolarni jamoat ishlarini boshqarishga jalb qilish texnologiyasi	0,243	0,832		
29 Davlat moliyalarini boshqarish	0,481	0,819		
30 Davlat iqtisodiy siyosati	0,717	0,790		
31 Mikroiqtisodiyot	0,263	0,831		

Bundan tashqari, tashqi ekspertlarning ballari va himoya ko'rsatkichlari bir-biri bilan ishonchli darajada bog'liqligi ($r = 0,281$, r -qiymati = 0,031) qiziqish uyg'otadi. 4-jadvalda ular diplom sifatida belgilangan.

**Umumlashtirilgan ikkinchi darajali shkala bo‘yicha fanlar ballarining
muvofiqligi jadvali**

	Punktning shkala bilan korrelyatsiyasi	Punktning o‘chirganda Kronbax alfa koeffitsiyenti	Shkala bo‘yicha Kronbax alfasi	Punktlar soni
1 natija			0,829	6
Qadriyatlar: o‘rtacha ball	0,699	0,797		
Fikrlash tizimliliigi: o‘rtacha ball	0,760	0,763		
Liderlik: o‘rtacha ball	0,749	0,788		
Boshqaruv professionalizmi: o‘rtacha ball	0,789	0,787		
Moslashuvchanlik: o‘rtacha ball	0,531	0,820		
Ish umloqotida ingliz tili	0,615	0,867		
2 natija			0,628	3
Maxsus fanlar:	0,525	0,517		
Ingliz tili:	0,457	0,628		
Diplom: Umumiy ball (yig‘indi 5_1 va 5_2)	0,478	0,488		

“Baholash markazi” texnologiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan maxsus tashkil etilgan qayta aloqa jarayoni baholash dasturining ayrim elementlari va tartiblari, xususan, fanlararo komissiya a‘zolari bilan suhbatlar, tartibning aniqligi, taqdimot o‘tkazish tartibi va keys tilini tanlash imkoniyati mavjudligi o‘z muvaffaqiyatini baholashga, boshqaruv haqida boshqacha tushunchaning paydo bo‘lishiga, hayotdan qoniqish hissi va o‘zini boshqarish qobiliyatiga ta’sir qilganini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar bizga baholash doirasida biz tomondan e’tiborga olinmagan, ishtirokchilarning rivojlanishidagi o‘zgarishlarga olib kelgan omil mavjudligi haqidagi gipotezani shakllantirishga imkon berdi.

Sinovdan o‘tayotganlarning yoshlaridan kelib chiqqan xolda, N.S.Gluxanyuk (2005) ishlarida keltirilgan modelga muvofiq, kasbiy rivojlanish nuqtayi nazaridan biz shaxsning barcha say-harakatlarini “bitta uzanga” yo‘naltirilishi (D.E.Shipanova, 2017). bilan tavsiflanadigan barqarorlashuv bosqichida bo‘lgan ishtirokchilar bilan ish olib borayotganimizni taxmin qilsak bo‘ladi. Xuddi shu yosh uchun kasbiy qobiliyat va mahoratning takomillashuvi xosdir. N.S.Pryajnikovning fikricha, mazkur bosqichda insonlar kasbiy mahoratga e’tibor qaratib, kasbiy madaniyatda o‘zlarini anglashga xarakat qiladilar (N.S.Pryajnikov 1997). Ye.A.Klimovning fikricha, o‘z o‘zini anglash o‘z natijasiga ko‘ra ikki darajada namoyon bo‘ladi: gnostik (o‘z ongini qayta qurish shaklida) va amaliy (ijtimoiy hamda shaxslararo mavqeni xaqiqiy o‘zgartirish shaklida) (Ye.A.Klimov 1996).

Uchinchi bob “**Baholash markazining rivojlanish imkoniyatlarini empirik o‘rganish**” deb nomlangan bo‘lib, unda empirik tadqiqotning ikki bosqichi dasturi va tavsifini taqdim etilgan.

Mazkur bobning “**Baholash markazlarining rivojlantiruvchi effektining**

psixologik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq etish dasturi” deb nomlangan birinchi bandida tegishli dasturlarni yaratish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan baholash markazlarining rivojlanish ta’sirining o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash zaruratidan iborat muammo shakllantirilgan. Tadqiqot maqsadi bayon etilgan bo‘lib, bu davlat xizmatchilari faoliyatini baholash markazlarining rivojlanish salohiyatini oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Davlat xizmatchilari faoliyatini kompleks baholash va rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda qo‘llash, baholash markazlarining rivojlanish ta’sirining asosiy mexanizmlarini aniqlash, baholash markazi ishtirokchilarini rivojlantirishning amaliy usullarini ishlab chiqish kabi vazifalar qayd etilgan.

Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi. “Empirik tadqiqotning birinchi bosqichi” deb nomlangan ikkinchi bandida empirik tadqiqotning birinchi bosqichi tavsifi berilgan. Tadqiqotda birinchi bosqichda beshta boshqarmaning: Turizm davlat qo‘mitasi, Ekologiya davlat qo‘mitasi, Davlat arxitektura qo‘mitasi, Xususiylashtirish davlat qo‘mitasi, Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 347 nafar davlat xizmatchilari ishtirok etdi.

Respondentlar ikki guruhga bo‘lingan: nazorat (255 kishi) va eksperimental (92 kishi). Ushbu guruhlarining sonidagi farqi texnik imkoniyatlar bilan izohlandi. Eksperimental guruh uchun maxsus auditoriyalar va assessor (baholovchilar)ning maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan tarkibi (kuzatuvchilar va tashkilotchilar) zarur edi. Nazorat guruhidagi respondentlar malaka testining savollariga javob berishdi, Tashkiliy test va Raven testidan o‘tishdi. Bundan tashqari, eksperimental guruhdagi respondentlar Baholash markazining maxsus tayyorlangan dasturidan o‘tdilar, mazkur dastur o‘z ichiga testlar (V.N.Buzin, E.F.Vanderlik tomonidan Qisqa yo‘naltirish testi), Ijodkorlik testi, Gulford testi va guruh mashqlarini olgan edi (jarayonlar ro‘yxati 5-jadvalda keltirilgan). Tashkiliy test (“Baholash markazi” texnologiyasini qo‘llashdan avval), Yangi tashkiliy test (“Baholash markazi” texnologiyasini qo‘llashdan keyin) va butun dastur yakunida kasbiy karyera maqsadlari bo‘yicha suhbat «rivojlanishdagi siljish» ko‘rsatkichlari sifatida xizmat qildi. Oxirgi uchta jarayon barcha ishtirokchilar (nazorat va eksperimental guruhlar) uchun majburiy edi.

“Baholash markazi” texnologiyasidan (eksperimental guruh) 92 ta subyektlar o‘tdi, shu jumladan: Turizm davlat qo‘mitasi - 13 kishi, Ekologiya davlat qo‘mitasi - 17 kishi, Davlat arxitektura qo‘mitasi - 19 kishi, Xususiylashtirish davlat qo‘mitasi - 13 kishi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi - 30 kishi. “Baholash markazi” texnologiyasini tayyorlash va amalga oshirish bosqichlari ilovada keltirilgan.

Qoʻllanilgan usullar va asosiy kompetensiyalarning mutanosibli

Mashqlar	1	2	3	4	5
	Fikrlash tizimligi	Qadriyatlar	Boshqaruv professionalizmi	Liderlik	Moslashuvchanlik
1. Tanishuv	+	+		+	
2. Tashkiliy test	+	+			
3. Qisqa yoʻnaltiruvchi test	+				+
4. Gilford testi (sotsial intellekt)	+				+
5. Miya hujumi	+	+	+	+	+
6. Guruhiy diskussiya	+	+	+	+	+
7. Maʼruza	+	+	+	+	+
8. Keys metodi	+	+	+	+	+

Birinchi bosqich natijalari

Tashkiliy testni yechishda birinchi oʻlchovda ikkala guruh teng natija koʻrsatdi. Baholash markazidan oʻtgandan soʻng nazorat (6-jadval) va eksperimental (7-jadval) guruhlarda Tashkiliy test hamda Yangi tashkiliy testning natijalari taqsimlanish meʼyorlari jihatidan tekshirildi.

6-jadval

**Tashkiliy test hamda Yangi tashkiliy test natijalari
(Kolmogorov-Smirnovning bir tanlovli mezoni)
(nazorat guruhi)**

	№	Meʼyoriy taqsimlanish parametrlari ^{a,b}		Eng katta ekstremal farqlar			Mezon statistikasi	Asimptotik ahamiyat (2-tomonlama)
		Oʻrta qiymat	Oʻrta kvadrat ogʻish	Mutloq	Ijobiy	Salbiy		
Tashk. test	255	166,6	38,8	,110	,044	-,110	,110	,000 ^c
Yangi tashk. test	255	164,6	39,4	,064	,037	-,064	,064	,012 ^c

7-jadval

**Tashkiliy test hamda Yangi tashkiliy test natijalari
(Kolmogorov-Smirnovning bir tanlovli mezoni)
(eksperiment guruhi)**

	№	Meʼyoriy taqsimlanish parametrlari ^{a,b}		Eng katta ekstremal farqlar			Mezon statistikasi	Asimptotik ahamiyat (2-tomonlama)
		Oʻrta qiymat	Oʻrta kvadrat ogʻish	Mutloq	Ijobiy	Salbiy		
Tashk. test	92	172,0	43,7	,098	,048	-,098	,098	,028 ^c
Yangi tashk. test	92	177,6	44,2	,093	,064	-,093	,093	,048 ^c

